



INGLIZ TILINI O'RGATISHDA TIL O'RGANUVCHILARDА  
READING, LISTENING, WRITING VA SPEAKING MAHORATINI  
SAMARALI OSHIRISH

*Mamura Payziyeva*

*Piskent tumani 1- son politexnikum*

*Ingliz tili fan o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ingliz tilini o'rgatish jarayonida to'rt asosiy ko'nikma — o'qish (reading), tinglab tushunish (listening), yozish (writing) va gapishtirish (speaking) mahoratlarini samarali shakllantirish va rivojlantirish metodikasi tahlil qilinadi. Til o'rganuvchilarning kommunikativ salohiyatini oshirishda integrallashgan yondashuv, zamonaviy texnologiyalar va interfaol metodlarning o'rni yoritiladi. Har bir ko'nikmaning o'ziga xos didaktik jihatlari, mashq turlari va o'rgatish bosqichlari ilmiy asosda bayon qilinadi.

**Kalit so'zlar:** ingliz tili, o'qish, tinglab tushunish, yozish, og'zaki nutq, kommunikativ metod, kompetensiya.

## KIRISH

Global integratsiya sharoitida xorijiy til, xususan, ingliz tilini o'rgatish nafaqat ilmiy yoki kasbiy ehtiyoj, balki shaxsiy va madaniy taraqqiyotning muhim komponentiga aylangan. Ta'lif jarayonida ingliz tilini samarali o'rgatish uchun to'rt asosiy til ko'nikmasi — o'qish, tinglash, yozish va gapishtirish — muvofiq shaklda rivojlantirilishi kerak. Ushbu ko'nikmalar bir-biriga chambarchas bog'liq bo'lib, til o'rganuvchining to'laqonli kommunikatsiya olib borishiga xizmat qiladi [1].

O'qish orqali o'quvchi til boyligini kengaytirsa, tinglab tushunish o'zgalarning nutqini anglashni ta'minlaydi; yozish esa fikrni to'g'ri ifoda qilishga,



gapisish esa og‘zaki muloqotni amalga oshirishga xizmat qiladi. Shu boisdan, har bir til ko‘nikmasi o‘ziga xos didaktik yondashuvni talab qiladi va ularni mustahkamlash uchun turli mashqlar, texnologiyalar va pedagogik metodlardan foydalaniladi.

### ASOSIY QISM

O‘qish — bu ingliz tilini o‘rganish jarayonida passiv reseptiv ko‘nikma bo‘lib, leksik boylik va grammatik tuzilmalarning mustahkamlanishiga xizmat qiladi. O‘qish orqali o‘quvchi kontekstda so‘zlarni tushunish, asosiy g‘oyani ajratish, detallarni anglash, turli matn janrlarini farqlashni o‘rganadi.

Mashq turlari [2]:

Pre-reading (matn oldi) mashqlari: sarlavhadan tahmin qilish, savollar berish;

While-reading (matn ustida) mashqlari: asosiy fikrni aniqlash, ma’lumotlarni to‘ldirish;

Post-reading (matn so‘nggi) mashqlari: muhokama, savol-javob, matn asosida fikr yozish.

Didaktik materiallar sifatida gazeta maqolalari, hikoyalar, yangiliklar, fan-texnika matnlari ishlataladi. Skimming (tez ko‘z yugurtirish) va scanning (an’anaviy qidiruv) texnikalari til boyligini oshirishda katta ahamiyatga ega.

Tinglab tushunish til o‘rganishning eng nozik va murakkab ko‘nikmalaridan biridir. Bu nafaqat so‘zlarni eshitish, balki talaffuz, urg‘u, intonatsiya, kontekstni anglash kabi bir nechta bosqichli qobiliyatlarni o‘z ichiga oladi.

Tinglash turlari [3]:

- Intensiv listening — qisqa matnlar asosida batafsil tahlil;
- Ekstensiv listening — uzun nutq, intervylar, audio hikoyalar;
- Interaktiv listening — dialog, rolli o‘yinlar.

Pedagog quyidagi usullardan foydalanishi mumkin:

- ✓ Audio matnlar asosida savol-javoblar;



- ✓ Notanish so‘zlarni kontekstdan anglash;
- ✓ Film va podkastlar yordamida tinglab tahlil qilish.

Bu bosqichda autentik materiallardan — BBC, Voice of America, TED Talks kabi manbalardan foydalanish tavsiya etiladi.

Yozish o‘quvchining fikrini aniq, grammatik jihatdan to‘g‘ri, mantiqan izchil ifoda eta olishiga xizmat qiladi. Writing ko‘nikmasi orqali til o‘rganuvchi lingvistik me’yorlar, matn strukturasi, paragraf tuzilishini o‘zlashtiradi.

Bosqichlari:

- Brainstorming — fikr yig‘ish;
- Drafting — reja asosida yozish;
- Editing — imloviy va grammatik xatolarni tahlil qilish;
- Final version — yakuniy matn yaratish.

Mashqlar [4]:

- Essay yozish (argumentative, descriptive, narrative);
- Email va ariza yozish;
- Gap tuzish, so‘z birikmalari asosida hikoya yaratish.

Yozma mashg‘ulotlarda kollaborativ usullar (juftlikda yoki guruhda yozish), peer review (o‘zaro baholash) metodikasi samarali hisoblanadi.

## XULOSA VA MUNOZARA

Xulosa qilib aytganda, ingliz tilini o‘rgatishda reading, listening, writing va speaking ko‘nikmalari har biri alohida didaktik yondashuvni, bosqichli o‘rgatishni va samarali pedagogik strategiyalarni talab qiladi. Bu to‘rtlik til o‘rganishning tayanch ustunlaridir. Ularni parallel va integrallashgan holda rivojlantirish, zamonaviy texnologiyalardan, autentik materiallardan, interfaol metodlardan foydalangan holda olib borilishi lozim.

Bugungi raqamli davrda multimedia platformalari, onlayn resurslar, til o‘rganish ilovalari (Duolingo, BBC Learning English, Quizlet) kabi vositalar til ko‘nikmalarini mustahkamlashda kuchli imkoniyatlar yaratmoqda. Muhimi, har bir



o‘quvchining ehtiyoji, darajasi va o‘rganish uslubiga mos yondashuv tanlanmog‘i lozim.

### ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Axmedova G.N. Ingliz tilini o‘qitishda interfaol metodlardan foydalanishning samaradorligi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. – 168 b.
2. Rahmonova M.T. Xorijiy tillarni o‘qitishda innovatsion texnologiyalar. – Samarqand: Ilm ziyo, 2020. – 142 b.
3. Хайдаров Б.Р. Современные подходы к формированию иноязычной коммуникативной компетенции. – Ташкент: Муаллим, 2019. – 112 с.
4. Harmer J. The Practice of English Language Teaching. – Harlow: Pearson Education, 2007. – 448 p.